SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

O‘ktamova Navruza Botir qizi
BO‘LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIY MATNLAR MISOLIDA) 264-268

Нумонжонов Шохзодбек Дилшоджон ўғли
ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕҲНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ 269-278

Xuramov Ilxom Panjiyevich
PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH 279-283

Azizbek Umarov
MEDIATA’LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN FAN TARMOG‘I SIFATIDA 284-290

Saidova Zilola Gadoymurodovna
TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI 291-298

Raxmonova Gulrux Ulashevna
O‘ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O‘YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI 299-303

Boynazarova Sayyora Ruzikulovna
BIOLOGIYA O‘QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 304-308

Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi
MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O‘RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI 309-314

Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi
MAKTAB TA’LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI 315-320

Abdalova Sayyara Rustamovna
O‘QUVJARAYONIDAZAMONAVIYPEDAGOGIKTEXNOLOGIYALARDANFOYDALANISH...321-327

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 7 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

13.00.00- Педагогика фанлари

Abdalova S.R.
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent v.b.

O‘QUV JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limning sifat va samaradorligini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, darslarni loyihalash, talabalar bilimlarini mustahkamlash, ularning intellektual salohiyati rivojlantirish kabilar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, bilim, ko‘nikma, malaka, pedagogik texnologiya, innovatsiya, metod, shakl, vosita, loyiha, analiz, sintez, kognitiv, psixomotor, affektiv, monitoring va boshqalar.

Абдалова С.Р.
Кандидат педагогических наук
Чирчикский государственный педагогический университет

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В этой статье рассматриваются качество и эффективность образования, внедрение инновационных педагогических технологий, проектирование уроков, укрепления знаний студентов, развитие их интеллектуальный потенциал.

Ключевые слова: образование, воспитания, государсвенный образовательный стандарт, учебная программа, знания, умения, навыки, педагогическая технология, инновации, метод, форма, средство, проектирование, анализ, синтез, когнитивный, психомоторный, аффективный, мониторинг и т.д.

Abdalova S.R.
Chirchik State Pedagogical University
Candidate of Pedagogical Sciences

USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE LEARNING PROCESS

Abstract: This article discusses the quality and effectiveness of education, the introduction of innovative pedagogical technologies, the design of lessons, strengthening students' knowledge, the development of their intellectual potential.

Keywords: education, upbringing, state educational standard, training program, knowledge, skills, pedagogical technology, innovation, method, form, remedy, design, analysis, synthesis, cognitive, psychomotor, affective, monitoring, etc.

Respublikamizning har tomonlama taraqqiy etishi ta’limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog‘liq. Bugungi kunda ta’lim sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Prezidentimizning 2018 yil 5 iyundagi qarori [1] buning yaqqol dalilidir. Unda bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan muammolar ta’kidlab o‘tilgan.

Mazkur muassasalarda ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash maqsadida - o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol usullarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e’tiborni talabalarning mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish kabi dolzarb vazifalar belgilab olindi.

Albatta, respublikamizning har tomonlama rivojlanishi ta’lim sifatiga bog‘liq. Ta’lim jarayonining sifatini oshirishda, ilm-fanning eng so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o‘z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash vazifalarini amalga oshirish nazarda tutiladi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ularni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki, uni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi [2] .

Ta’lim sifatining oshib borishi dars berish jarayonida qo‘llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni turli yo‘nalish va maqsadlarda qo‘llanilayotganligiga bog‘liq. Pedagogik texnologiya - har tomonlama puxta o‘ylangan pedagogik loyihalashtirish, ta’lim jarayonini tashkil qilish va albatta talaba hamda pedagog uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali xamjihatlikda ishlab chiqilgan modeldir.

O‘qitish maqsadini aniq belgilash, mazkur jarayonni loyihalash, pedagogik texnologiyalarning muhim belgi hamda xususiyatlari hisoblanadi. Bu belgilar qatoriga texnologiyaning takrorlanuvchanlik-qaytaruvchanlik xususiyatini kiritish zarur. Chunki, pedagogik texnologiya joriy etilganda, an’anaviy o‘qitish jarayoniga xos bo‘lmagan yangi belgilar, xususiyatlar: o‘quv maqsadlarini aniqlashtirish, o‘quv jarayoni va maqsadlariga tuzatishlar kiritilishi hamda izchil qaytuvchi aloqaning mavjudligini yaqqol sezish mumkin.

Loyihalash faoliyatida – refleksiv, tadqiqotchilik, hamkorlikda ishlash, menedjerlik, kommunikativ ko‘nikmalari kabi kompetensiyalar shakllanadi. Chunki, har qanday loyihaning asosiy maqsadi - turli tanyach kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat [3].

Loyihalash metodining asosiy vazifasi turli predmet sohalarida bilimlar integratsiyasini talab etuvchi, amaliy masalalar yoki muammolarni yechish jarayonida talabalarga bilimlarni mustaqil egallashiga imkoniyat berishdan iborat. Bu mohiyati bo‘yicha barcha tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, muammoli, ijodkorlik kabi metodlarni nazarda tutadi. Loyiha doirasida pedagogga ishlab chiquvchi, koordinator, ekspert, konsultant rollari beriladi. Ya’ni, loyihalash metodi asosida talabalarning bilish ko‘nikmalarini, o‘z bilimlarini mustaqil konstruksiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot muhitida mo‘ljal olishni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yotadi.

Dars loyihasini amalga oshirishda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, vaqtini e'lon qilish, mavzuni to'lik o'zlashtirish bo'ycha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish mezonlarini aytib berish;

- talabalarning faol, mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, ular diqqatini mavzu mazmuniga jalb etish, qiziqish hamda muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, ular yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish, mashg'ulot jarayonida kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan va tasodifiy xodisalar uchrab turadi, olingan natijalarga asoslanib loyihaga yangi o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlar kiritiladi, erishilgan natijalar kafolatlangan natija bilan taqqoslanadi;

- mavzu bo'ycha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni turli holatlariga tatbiq qilish, nazorat turlari natijalariga ko'ra mavzu bo'ycha axborot to'plash, ularga ishlov berish jarayonida talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, ularning bilim, ko'nikma, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchilaklarini ko'rsatish, xar bir talabaga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo'shimcha topshiriqlar berish, ularni materiallarni yanada atroflicha etalon darajasida o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy funksiyasi talabalarning ma'lumot va mashg'ulot mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, undan past o'zlashtirganlarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish.

Olingan axborotni tahlil qilib, zarur xollarda kelgusidagi xarakatlarga o'zgartirishlar kiritiladi va nihoyat, qo'yilgan maqsad va olingan natijalarning mosligi haqida xulosa chiqariladi, har qanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita natijalarning mosligi haqida xulosa chiqariladi.

Darsni tashkil etish va loyihalashni ko'rib chiqamiz [4, 5].

Mavzu: "Laboratoriya jihozlari va undan foydalanish" mavzusida darsni tashkil etish va loyihalash.

Dars rejasi. Mavzudagi asosiy tushunchalarni berish. Asosiy formula yoki tenglamalarni keltirib chiqarish. Birliklari va bog'lanishlarni aniqlash. Amaliyotga bog'lash. Muammoli vaziyatlarni tuzish va tahlil qilish.

Ajratilgan vaqt: 2 soat

Tayanch tushuncha va iboralar. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralarni keltirish, ularga izoh berish (bilim, ko'nikma, malaka, texnologiya, metod, shakl, vosita va h.k).

Darsning maqsadi. Talabalarni turli vaziyatlarga duch kelib qolgan vaqtlarda hech qanday qiyinchiliksiz, bu muammolardan chiqish yo'llarini, ularning o'z fikrlarini to'g'ri hal qilishga, o'z ustida ishlashga o'rgatish va undash. Uni 3 guruhga ajratish mumkin.

1. Umumiy maqsad. DTS va o'quv dasturiga mos holda shakllantiriladi;

2. Pedagog maqsadi. Ta'limiy. Mavzu yuzasidan asosiy ma'lumotlarni berish. Tarbiyaviy. Talabalarda mustaqil fikrlash tafakkurini shakllantirish. Rivojlantiruvchi. Talabalarni fanlardan amaliy mashg'ulotlarni, muammoli vaziyatlarni, masala va topshiriqlarni ongli ravishda yechishga o'rgatish.

3. Talaba maqsadlari. Kognitiv (bilishga oid) sohada o‘rganilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berish, egallangan bilimlarni mustaqil to‘la anglash, ularni oldin o‘rganilgan uslub, usullar bilan uyg‘unlashtirilib tasavvur etishgacha bo‘lgan muammolarni hal etish. Psixomotor (harakatga oid) sohada u yoki bu harakat faoliyatida, harakat yo‘nalishlarini tez va chaqqon o‘zgartirish, asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarishni shakllantirish. **Affektiv** (hissiyotga oid) sohada oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyat yo‘nalish va munosabatlarini o‘zlashtirishga tayyor bo‘lish, talabalarni atrof-muhitga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo‘lishini shakllantirish.

Masalan: “Laboratoriya jihozlari va undan foydalanish” mavzusi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar mavzusi bo‘yicha darsning aniqlashtirilgan maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin, talaba bu mavzuni to‘la o‘zlashtirib, mustaqil o‘rganganidan so‘ng: kognitiv sohada: laboratoriya jihozlari va undan foydalanishni biladi; laboratoriya jihozlari asosiy qismlarni sanab ko‘rsatadi; mazkur qismlar qanday metallardan tayyorlanganligini farqlaydi; ularning xossalarini tushuntiradi; ularning keraklilik ahamiyatini baholay oladi; psixomotor sohada: laboratoriya jihozlarini qismlarga ajratish va yig‘ishni uddalaydi; affektiv sohada: laboratoriya jihozlarining ahamiyatini his etadi; ulardan samarali va maqsadga muvofiq holda foydalanish zarurligini anglaydi.

Talaba: bilishi kerak: mavzuga oid asosiy tushunchalarni; tushunishi kerak: mavzuni o‘z so‘zi bilan bayon qilishni, tafsilotini yozishni, grafigini tushuntirishni, formula va tenglamalarni og‘zaki tushuntirishni, qoidalarni og‘zaki aytib, uning formulasini yozishni; tatbiq eta olishi kerak: mavzuga oid olgan ma’lumotlarini qaerda va qanday qo‘llanishini, bunday harakat nima uchun sodir bo‘layotganini, qoidalar qanday qo‘llanish mumkinligini, ularga doir misollar keltirish va masalalar yechishni; tahlil qilishi kerak: mavzudagi tushunchalarni taqqoslashni, eng muhim xususiyatlari nimadaligini, orasidagi farqni aniqlashni, xatoliklarni aniqlash va ularni qanday qilib bartaraf etish mumkinligini, orasidagi bog‘lanishni aniqlashni; sintez qilishi kerak: mavzu rejasini tuzishni, asosiy tushuncha va qoidalarni qanday tekshirish mumkinligini, berilganlarga asoslanib texnik sistema va texnologik jarayonni yaratishni, mavzuning eng muhim jihatlarini belgilashni; baholashi kerak: turli tushunchalarga munosabat bildirishni, nima uchun shunday yoki unday emasligini, qaysi mezonlarga asoslanib baholash mumkinligini.

Darsning borishi.

Tashkiliy qismi: davomatni aniqlash, talabalarning o‘quv motivlarini faollashtirish, ularga bugungi mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish. Ularni mashg‘ulot rejasi maqsadi, borishi, bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish. Mavzuni o‘rganish rejasi, oldingini mazkur mavzu bilan bog‘lash.

- kirish: mavzu haqida talabalar oldindan nimani bilishlarini aniqlash maqsadida faollashtiruvchi, ularda motivatsiya uyg‘otuvchi savollarni berish mumkin. Masalan: Siz mavzu haqida qanday ma’lumotlarga egasiz? Siz buni qaerdan bilasiz? Mavzu haqida qanday takliflaringiz bor? va h.k.;

- asosiy qism: hurmatli talabalar, biz bugungi mavzuni o‘rganish bilan kelajakda hayotda, turmushda, ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan ushbu ishlarga javob topamiz. Siz mazkur mavzuni mukammal o‘zlashtirishingiz bilan kelajakda bu sohada tadbirkorlikka qo‘l urishingiz mumkin degan gaplarni aytish lozim va b.q.lar;

- yakuniy qism: xulosalar qilish, umumlashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, unga talabalarni jalb etish, talabalarni baholash, uyga topshiriq berish.

O‘qitish metodlari va texnologiyalari: insert, blis-savolar, klaster, aqliy hujum, T-sxema, keys-stadi, og‘zaki bayon qilish, suhbat-ma’ruza, loyihalash, modulli, evristik.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: yalpi o‘qitish, kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, individual, kichik guruhlarda ishlash.

Ta’lim usullari: namoyish va og‘zaki bayon.

Dars uchun tayyorlangan savollar: Blum, pedagogning faollashtiruvchi savollari..

Topshiriq turlari: og‘zaki savol-javob, yozma ish, testlar.

Dars uchun tayyorlangan muammoli topshiriqlar: muammoli, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, tadbirkorlikka undovchi.

Darsda qo‘llaniladigan metodlar va usullar: suhbat, ko‘rsatish, munozara, guruhlarda ishlash.

Dars vositalari. Shu fanni o‘qitish bo‘yicha lozim bo‘lgan o‘quv vositalari va ko‘rgazmali qurollar ro‘yxati keltiriladi. Pedagog uchun o‘quv-metodik qo‘llanma, metodik tavsiya, metodik ishlanma, fan dasturi, mashg‘ulot rejasi, ma’ruza matni. Talaba uchun darslik, o‘quv qo‘llanma, jadvallar, tarqatma materiallar, yo‘l-yo‘riqli texnologik xaritalar, tipik xatolar xaritasi, topshiriq varaqasi, interfaol usullar. Dars o‘tkazish uchun plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalardan tanlab olish mumkin.

Tegishli sharoit. Texnik vositalar bilan ta’minlangan, ta’lim metodlarini qo‘llash mumkin bo‘lgan xona.

Darsni jihozlash. Adabiyotlar, laboratoriya ishlari asosiy jarayonlari sxemasi, asosiy texnologik bosqichlari sxemasi va boshqalar.

Darsni o‘tkazish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. Talabalarga muammoli savollar beriladi. 5-10 daqiqa vaqt berilib, ularning tayyorgarlik ko‘rishlari hamda savollarga to‘g‘ri, aniq javoblar tanlash, fikrni mujassamlashtirishi tekshiriladi. Ular pedagog rahbarligida xulosalar chiqaradi va qoidalarni ta’riflaydi. Shu sababli muammoli usullardan foydalanishda ham pedagogning tushuntirishi o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

O‘tilgan mavzuni so‘rash shakllari: yakka, guruhiy aralash, o‘yin hisobot shaklida.

So‘rash turlari: Og‘zaki, yozma, test, ijodiy topshiriqlar bajarish, ma’lumot tariqasida didaktik materiallar asosida so‘rash, mavzuning hammasini so‘rash, qisman so‘rash, algoritmlaridan foydalanish.

Tushuntirish jarayonida e’tibor qilinishi lozim bo‘lgan jihatlar: mavzuni o‘tgan mavzu bilan bog‘lash, texnik vositalarni ishlatish, fanlararo aloqani ta’minlash, talabalarning yozishi va o‘qishini tashkil etishga imkoniyat yaratish, o‘tilayotgan mavzuning ta’siri va o‘rganilish darajasini tekshirish. Bunda talabalarga savollar berib borish, qisqa muddatli savol-javoblar o‘tkazib borish, har qanday hatti-harakatlar e’tibordan chetga chiqarmaslik, talabalar javoblariga izoh berish yoki to‘ldirish, yaxshi javoblarni rag‘batlantirish, yangi mavzuni mustaqil o‘rganish holatini yoki sharoit yaratilishini ta’minlash, bu masalalar yana qaysi adabiyotlarda yoritilganligini ta’kidlash, gazeta va televideniyalarda ruknlar, mavzularning borligini ham eslatib o‘tish .

Monitoring. Kuzatish, og‘zaki yoki yozma nazorat.

Egallagan bilimlarni tekshirish va baholash. Bu bo‘yicha pedagogning amalga oshirishi lozim bo‘lgan jarayonlar: talabalar bilimini baholash uchun tayyorlangan savollar hamma talabalarga tarqatiladi. Ularga javob berish uchun (masalan, 2 daqiqa) vaqt beriladi. Berilgan savol varaqlari yig‘ishtirib olinadi va shu jarayonda talabalardan og‘zaki ham so‘raladi va frontal so‘rov o‘tkaziladi. Hamma varaqlar yig‘ishtirib olingach, javoblar oldindan yechib qo‘yilgan savollar bilan solishtirilib ularning to‘g‘riligi tekshiriladi. Talabalar bilimini baholashda “Blis-so‘rov” texnologiyasidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Kutiladigan natijalar. Pedagog belgilangan vaqtda ko‘p axborotlarni berishga, ish jarayonida charchamasdan darsga ijodiy yondashishga erishadi. Talaba mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga, tegishli tahliliy usullarni o‘rganishga muvaffaq bo‘ladi va mustaqil ishlashga tegishli topshiriqlar oladi.

Darsdan kutilgan natija talabaning yangi axborotga bo‘lgan talabi qisman qondiriladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyasida esa pedagog birinchi navbatda dars o‘tishdan aniq maqsad va natijani belgilab oladi. An’anaviy konspekt yozishdan voz kechadi. Uning o‘rniga yangi bilimlar va axborot vositalariga asoslangan tayanch konspektlari tuzadi. Unda talabaga yetkazilishi lozim bo‘lgan bilimlar aniq ko‘rsatiladi, shuningdek, o‘zlashtirishdagi samaradorlik e’tiborga olinadi. Ana shu tayanch konspektlarga muvofiq o‘tmoqchi bo‘lgan yangi darsning loyihasi va mantiqiy strukturasi ishlab chiqiladi. Unda dars jarayoni bosqichlarga bo‘linadi va shu bosqichlarda talaba va pedagog faoliyati belgilanadi.

Kelgusi rejalar. Interfaol usullarda dars o‘tishga ko‘nikma hosil qilib boriladi. Talaba mustaqil ishlash jarayonida tegishli topshiriqlar bajarish ko‘nikmasini egallab boradi.

Uyga vazifa berish. Masalan, esse yozib keling, innovatsion g‘oyalar haqida o‘ylang. Mavzuga oid referat yozib kelish. Kelgusi mashg‘ulot mavzusi yuzasidan seminarga tayyorlanib kelish. Nazorat uchun savollar, mustaqil ishlash uchun mavzular va mashqlar berish.

Adabiyotlar. Ro‘yxatini keltirish.

Lekin, tahlillar va kuzatishlar mazkur texnologiyalardan foydalanishda juda katta muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, pedagoglarimiz ularning mazmun va mohiyatini, maqsad va vazifalarni, tamoyillarini, qoidalarini, darsga kiritish mexanizmlarini to‘g‘ri hamda aniq tushunmasdan turib ulardan foydalanishga harakat qilishmoqda. Lekin bu o‘z samarasini bermayapti. Bu borada pedagoglarimiz o‘rtasida muntazam davra suhbatlari va seminarlarni tashkil etish hamda bu jarayonga respublikamizning yetakchi olim va professor-pedagoglarini jalb etish lozim.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyalar asosida darslarni loyihalash talabalarning kasbiy sifatlarini (mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik) hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalari (tahlil qila olish, solishtirish, klassifiksiyalash, umumlashtirish, xulosa chiqara olish, tatbiq qila olish kabi)ni rivojlantirish, ta’lim muammolarini yecha bilish, ijodiy tajribaga ega bo‘lish va uni rivojlantirish, vazifalarni tahlil qilish kabi imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 qarori.

2. Golish L. V. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo‘llanma. - T.: 2001 y. - 65 b.

3. Golish L.V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari; mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo‘llanma T.: TASIS, 2001. - 59 b.

4. Mavlyanov A. Abdalova S. Ernazarov A. Ilg‘or pedagogik texnologiya bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotini loyihalash. Zamonaviy ta’lim. 2016. №2. B.25-29.

5. Mavlyanov A., S.Abdalova, A.Ernazarov. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Tafakur bo‘stoni. 2015, -124 b.